

## **TALABALAR TURAR JOY MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI.**

Alimova Qunduz Oybek qizi, Ablyakimova Refide Izmirovna, JDPI maktab  
menejmenti o'qituvchisi

*Sulaymonova E'zoza, JDPI. Maktab menejmenti 1- bosqich talabalar*

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada talabalar turar joyi muammolari va Vazirlar Mahkamasining turar joy muammosiga oid chiqargan qarorining mazmun mohiyati aks etgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lif, usnews.com sayti, "Manzil" avtomatlashtirilgan axborot tizimi, electron platforma, Richmond universiteti va Stenford universiteti.

O'zbekistonda mavjud Oliy ta'lif muassasalarining asosiy qismi va nisbatan nufuzli oliygochlarda, shuningdek, xorijiy universitetlarning ko'plab filiallari Toshkentda joylashgan. Samarqand, Andijon, Buxoro, Qarshi shaharlari talabalar soni bo'yicha keyingi o'rnlarni egallaydi. Biroq, talabalarni turar joy bilan ta'minlash borasida ko'rsatkichlarni muvaffaqiyatli deb bo'lmaydi.

Respublika ilk bor tashkil etilgan oliy ta'lif muassasasi hisoblanmish Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ayni vaqtda umumiy talabalar soni 29,769 nafarni tashkil qiladi. Biroq, ularning bor yo'g'i 12,2 % i, talabalar turar joy bilan ta'minlangan.

Talabalar turar joy bilan ta'minlashda xorij tajribasini aytganimizda, 2019-2020 o'quv yillarida AQSH dagi kollej va universitetlar talabalarni turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatgichlari taqdim etilgan usnews.com sayti o'z statistikasini quyidagi so'zlar bilan boshlagan. "Oliy o'quv yurti yotoqxonalari ko'pincha pizza va kino kechalari, ta'lif marafonlari va do'stlashish maydoni sifatida xizmat qiladi. Universitet taqdim qilayotgan turar joylarda yashash talabalarga ota-onan qanoti ostidan, chiqib mustaqil hayotga qadam qo'yishda ko'prik vazifasini bajaradi." Saytda talabalarni turar joylari bilan ta'minlash darajasi 90 % va undan ko'p bo'lgan 100 ta oliy o'quv yurti bo'lib, ular orasida Stenford universiteti -93 %, Richmond universiteti- 91% kabi yuqori reytingli oliy

o'quv yurtlari bor. E'tiborlisi shundaki, bu oliyohlar faqatgina bakalavriat bosqichi talabalarinigina emas, balki magistrant, doktorant va o'qituvchilarni ham alohida turar joy bilan ta'minlash imkoniyatini yaratgan. Bu universitetlar umumiyl talabalar yotoqxonasini quribgina qolmay, oilaviy yashashga imkon beradigan alohida uylar kompleksiga ham ega.

O'zbekiston Respublikasi hududida esa bu ko'rsatgichlar juda past darajada.Talabalar yotoqxonalari deyarli ko'p hududlarda yo'q holatlar ham mavjud.

Xususan Jizzaxdagi oliy ta'lif muassasalarning ham talabalar turar joyida joy yo'qligi sabab, ba'zi talabalar uyidan qatnayapti, ba'zilari esa narxi biroz qimmatroq bo'lgan hududlarda istiqomat qilishayapti.

Xususan narxi yuqori bo'lgan kvartiralarni bitta talabaga hisoblaganda quydagicha natija chiqadi:

- 250 ming ijaraga
- 250 ming oziq-ovqatga
- 150 ming maishiy texnik xizmatlarga
- 100 ming o'rtacha zaruriy narsalarga.

O'rtacha bir oylik bitta talabaga 750 ming ketadi. Buni 9 oyga (ta'tildan tashqari) o'rtacha 585 ming sarflanadi. Bordi-yu to'lov shartnomasi asosida o'qisa 6.412.00 miqdorda pul to'lasa, bu yillik qiymatda juda yuqori bo'ladi.Bundan tashqari talabalar turar joylari oliygohdan uzoqda bo'lishi kerak emas, shu jihatga ham e'tibor qaratishimiz muhim ahamiyatga ega. Bu ko'rsatgich ayniqsa poytaxtimizda yuqori. Keyingi asosiy muammo shuki, talabalar turar joylarida nima uchun asosan kam ta'minlanganlargina, nogironligi bor shaxslar, temir daftari yoki xotin- qizlar daftariga kirganlargina turadi? Boshqa talabalar ham bor faqat kamroq. Asosiy sabab shuki, talabalar turar joylarida o'rinn joylari kam.Oliygohdan ta'lif olayotganlar soni esa ko'p.Bu muammoga asosiy yechim shuki, talabalar turar joylarini sonini ko'paytirish va kengaytirish kerak. Shundagina yuqorida hisob kitob qilgan 9 oylik harajatimizi anchagini kamaytirishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2021-yil 9-sentabr 563-sonli qarori imzolandi.Ushbu qarorning asosiy mazmuni qarorda keltirilganidek, talabalarni turar joy bilan ta’minalash masalasi hisoblanadi<sup>1</sup>. Uning qisqacha mazmuni shundan iborat:

- Qarorga muvofiq 2021 yil 10 sentabrdan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda tizimida davlat oliy ta’lim muassasasi bo‘lgan vazirlilik va idoralarning so‘rovnomasiga asosan talabalar turar joylarini qurish uchun oliy ta’lim muassasasiga 0,5 gektargacha bo‘lgan yer maydonlari unga yaqin joylardan ajratilishi;
- Davlat oliy ta’lim muassasasining buyurtmasi va tadbirkorlik subyektining tashabbusi asosida tadbirkorga tegishli yer maydoni yoki binoda kamida 50 o‘rinli talabalar turar joylarini tashkil etish tizimi joriy etilishi;
- Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda “Manzil” avtomatlashtirilgan axborot tizimi bilan integratsiyalashgan oliy ta’lim muassasalari talabalarining hudud va oliy ta’lim muassasasi kesimidagi elektron bazasini yaratish;
- Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan talabalar uchun turar joy qidirishga ixtisoslashgan elektron platformani ishlab chiqish, talabalar turar joyi va xususiy xonardonlardan ijara turar joy qidirishning ishonchli tizimini yo‘lga qo‘yish hamda doimiy ravishda yangilab borilishi belgilab qo‘yilgan.

### **Hududlarda talabalar turar joylarini qurish uchun oliy ta’lim muassasalariga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilayotgan yer maydonlari**

#### **RO‘YXATI**

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 2021-yil 9-sentabr 563-sonli qarori.

T/ r	Oliy ta'lim muassas asi nomi	Jami barpo etiladigan talabalar turar joylari (400 o'rinni)			Oliy ta'lim muassasasi hududida barpo etiladigan talabalar turar joylari			Yillar kesimida (talabalar turar joyi soni)			
		soni	quvv ati	yer mayd oni (g a)	son i	quvv ati	yer maydon i (ga)	2022- yil	2023- yil	2024- yil	2025- yil
	Jizzax viloyati	9	3 600	2,7	9	3 600	2,7	2	3	2	2
1	Jizzax politexni ka instituti	4	1 600	1,2	4	1 600	1,2	1	1	1	1
2	Jizzax davlat pedagogi ka instituti	5	2 000	1,5	5	2 000	1,5	1	2	1	1

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, biz yuqorida aytib o'tgan qarorning ijrosi 2022-2025 o'quv yillari davomida asta sekinlik bilan bosqichma bosqich amalga oshiriladi. Xususan, yuqorida keltirilgan xorij tajribasini misol qilib keltirgan edik. Ushbu qarorda keltirilgan elektron platformani yaratish jarayoni ham bosqichma bosqich amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Respublika oliv ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risida 2021-yil 9-sentabr 563-sonli qarori.

2. <http://davr24.uz/archives/5306>

3. <https://lex.uz/docs/-5622798>

4. Statistika.uz